

CHET TILINI O'QITISHDA SUGGESTOPEDIADAN FOYDALANISH VA SO'ZLASHUV FAOLLIGINI OSHIRISH

Nematova Z.T.

Buxoro davlat tibbiyot instituti.

✓ **Rezume,**

Ushbu maqolada ingliz tilini o'qitishda Suggestopedia metodidan foydalanish, hamda Suggestopediyaning masofaviy o'qitishdagi asosiy tamoyillari haqida gapiriladi. Bu metoddata laba chet tilidagi matnni yoqimli musiqa ostida tinglaydi va bu talabaga emotsional ta'sir ko'rsatib, mashg'ulotni uyg'unlashtiradi.

Kalit so'zlar: Suggestopedia, masofaviy o'qitish, kompyuter texnologiyalari, psixologiya, tilshunoslik.

THE USAGE OF SUGGESTOPEDIA FOR TEACHING FOREIGN LANGUAGES AND INCREASE SPEECH ACTIVITY.

Nematova Z.T.

Bukhara State Medical institute named after Abu Ali Ibn Sina.

✓ **Resume,**

This article deals with the usage of Suggestopedia in teaching English and also with the basic principles of Suggestopedia in distance learning. It makes the students feel relaxed while listening the text in foreign language under a pleasant music.

Key words: Suggestopedia, distance learning, computer technologies, psychology, linguistics.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СУГГЕСТОПЕДИИ ДЛЯ ПРЕПОДАВАНИЯ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ И УВЕЛИЧИТЬ СЛОВАРНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Нематова З.Т.

Бухарский государственный медицинский институт.

✓ **Резюме,**

Эта статья посвящена использованию Сuggestопедии в преподавании английского языка, а также основным принципам Сuggestопедии в дистанционном обучении. Это заставляет студентов чувствовать себя расслабленно во время прослушивания текста на иностранном языке под приятную музыку.

Ключевые слова: Сuggestопедия, дистанционное обучение, компьютерные технологии, психология, лингвистика.

Dolzarbligi

Chet tili muloqot, bilish, axborot olish va to'plash vositasi hisoblangan chet tilida munosabatlar shartlari nutq faoliyati barcha turlarini bilish zarurligini belgilab beradi: ushbu chet tilida gapirish va nutqni tushunish hamda o'qish, yozish, nutqiy faoliyat yoki bu turini bilish darajasi, bevosita chet tilida muloqot amaliyotida, ixtisosligi bo'yicha autentik va yuksak mazmunli adabiyotlarni o'qishda, kitob, ularga annotatsiyalar, konferentsiyalar uchun tezislari, amaliy yozmalar ko'rinishida yozma axborot almashishda namoyon bo'ladi.

Ko'pincha, "amaliy sinovdan" o'tkazilganda, ayniqsa, o'rta maktabda chet tili bo'yicha olingan imtihon bahosi to'g'riligiga shubha uyg'onadi, chunki chet tilini bilish darajasiga sifat jihatidan yangi, ancha aniq talablar: imtihonlar hozirgacha tilning o'zida malakalar va ko'nikmalar qabariganda, til to'g'risidagi bilimlar, qoidalarga ko'proq e'tibor beriladi, og'zaki nutqni bilish boshqa nutqiy ko'nikmalarni o'qish va yozish ko'nikmalarini shakllantirish uchun shart bo'lib hisoblanmay, balki ikkilamchi bo'yisunuvchi xususiyatga ega bo'lgan an'anaviy yoki boshqa bir o'quv metodiga yo'naltirilgan bo'ladi. Ilmiy-texnik taraqqiyot ijtimoiy asosdagi oqibatlar sifatida paydo bo'lgan o'qitishning yangi metodlari, albatta, neyrofiziologiya, psixologiya, xususan, idrok etish psixo-

logiyasi, xotira psixologiyasi, ongli va ongsizlik, axborot nazariyasi psixologiyasi va boshqa bilimlar zamonaviy darajalarini o'z ichiga oladi hamda aksettiradi [3,2].

Maqsadi

Tibbiyot instituti talabalariga ingliz tilini o'qitishda Suggestopedia metodidan foydalanish, nutq va lug'at boyligini oshirish va darslarni uyg'unlashtirish.

Material va usullari

Yangi metodlar boshqa yaqin va aralash fanlar xususan, tilshunoslik, psixolingvistika, psixologiyaga tajriba va bilimlaridan foydalanadilar. Pedagogik suggestopedik yo'nalishi bolgariyalik shifokor, psixoterapevt Georgiy Lozanovning o'qish jarayonida xususan, chet tillariga o'qitishda shaxsning zaxiraviy psixik imkoniyatlarini faollashtirish vositasi sifatida- suggestiyadan foydalanishga urinish sababli paydo bo'ldi. Suggestiya (Lozanov bo'yicha) bu shaxsning zaxira imkoniyatlarini faollashtirish uchun sharoitlar yaratuvchi insonning tetiklik holatida asosan to'g'ridan-to'g'ri emas, kommunikativ ta'sir etish vositasidir. G.Lozanov suggestiya asosan uchta turlarini ko'rsatadi. Ular foydalanuvchilarda turli psixologik to'siqlarni yo'qotish uchun o'quv jarayonida foydalaniladi.



Ular: Psixologik suggestiya, psixoterapevtik, psixologik va psixogigiyenik omillarni hamda materialni yetkazish mantiqiy shaklidan foydalanib, emotsional ta'sirni hisobga olgan holda mashg'ulot olib boradi. Didaktik suggestiyada mashg'ulotlarda ta'limni faollashtiradigan alohida uslublar qo'llaniladi. Badiiy suggestiya mashg'ulotlarda talabaga emotsional ta'sir ko'rsatish va mashg'ulotni uyg'unlashtirish maqsadida san'atning har xil turlari (musiqi, rassomchilik, teatr elementlari) dan foydalanadi [1].

Masofaviy ta'limda ta'limiy mashg'ulotlarni tayyorlashda ham ularga e'tibor qaratish zarur bo'lgan, sugge-stopedianing asosiy qoidalari quyidagilardan iborat:

- ta'lim olish quvonchli bo'lishi kerak, og'ir bo'lmasligi kerak

- uni ham ongli ravishda, ham anglamagan darajada amalga oshirish kerak

- natijalilikka oshirish maqsadida ta'limda odatda ongning ishtirok etmaydigan xaziralaridan keng foydalanish zarur.

Mamlakatimizning bir qator olimlari Lozanov izdoshlari bo'ldilar, metodning o'zi esa avval "Lozanov" keyin "Ekspress metod", keyinroq esa "jadal metod" nomini oldi. Lozanov g'oyalari pedagog va psixologlar tomonlaridan moslashtirildi va rivojlantirildi. Ular chet tillariga o'qitish jadal metodikalarini bo'yicha yetakchi mutaxassislar sifatida o'qitish jadal metodlari bo'yicha muammoli kengashni tashkil qildilar. Bu kengash chet tillariga o'qitish jadal metodlarini qo'llash bo'yicha keng natijalarni to'pladi va umumlashtirdi hamda bu metodlarni o'zlashtirish, foydalanish bo'yicha pedagoglar ishlarini yo'naltirdi. Jadal metodikalar tarafdorlarining ko'plab sonli maqolalari o'qitish jadal metodikasini to'g'ri qo'llashga qaratilgan. O'zlashtirish hajmi bo'yicha ham va o'qitish muddatlari bo'yicha ham chet tiliga o'qitishda katta natijalarga erishishga imkon berishini ko'rsatdi. Biroq mana shu barcha ijobiy natijalar o'rta maktabda jadal metodikalarini qo'llash jiddiy cheklanishlarga ega bo'lishi holatini yashira olmaydi, "o'z" metodini tanlashda masofaviy ta'limda ularni hisobga olish zarur [7].

Internet orqali chet tillariga o'qitishda jadal metodning asosiy maqsad va vazifalarini aniq belib olish zarur. Shunday qilib, chet tiliga o'qitish jadal metodining asosiy vazifasi qisqa muddat sharoitida muloqot va idrok etish vositasi sifatida chet tilini egallab olish, deyarli, cheklanmagan turmush, ijtimoiy-siyosiy va umumilmiy mavzularda oddiy (tabiiy) yoki oddiyga yaqin sur'atda chet tilida og'zaki nutqni tushunish malakasi va ko'nikmalarini ishlab chiqish hisoblanadi. Jadal o'qitish eng boshlang'ich bosqichida ishlab chiqiladigan og'zaki nutqni tushunish malakasi o'qitish davomida takomillashtiriladi, ko'nikmaga aylantiriladi. Olingan axborotlar hajmining 50 dan 100 foizigacha tushunishni ta'minlaydi. Amaliy muloqot sharoitlarida chet tilidagi og'zaki nutq hajmi mazmuni bo'yicha tushunilmagan masalalarga oid savol berishni yoki nutqning alohida qismlarini tushuntirishi tinglovchining "chet tilida so'zlashuv faolligi" hisobiga tushunish ko'nikmasi amalga oshirilishi mumkin [4].

Amaliyot ko'rsatishicha, audirovaniya ko'nikmasi ancha yuqori darajasini yaratish uchun foydalanuvchi taxminan 6 ming so'z birikmalariga teng lug'at boyligini egallab olishi zarur. Bu lug'atning alohida turi, uni bilish faqat haqiqiy tanish, dastlabki so'zlar hisobigagina emas, balki so'z hosil qilish qoidalarini bilish hisobiga ham amalga oshiriladi. Bu foydalanuvchida kontekstual anglash ko'nikmasini yaratish oqibatida, ko'plab notanish so'zlarni o'z ichiga olgan o'rganilayotgan chet tili ichki tuzilmasini yaratish bilan va

muloqot ishtirokchisi har birida umuman, muloqot tajribasi hisobiga amalga oshadi. Muloqotda ishtirok etish chet tilida og'zaki nutqni bilishni, ya'ni gapirish ko'nikmasini yaratishni ko'zda tutadi.

Internet materiallarida so'zlashish ko'nikmalarini amalga oshirilishi sharti sifatida so'z boyligiga, til materiallari hajmiga unchalik katta talablar qo'yilmaydi. Biroq so'zlashish muloqot jarayonida shaxs sifatida to'laqonli ishtirok etishi uchun foydalanuvchi egallab olishi kerak bo'lgan so'z va umuman, til materiallari hajmi zarur minimumini belgilaydi.

So'z va grammatik materialdan tashqari, bu minimum ushbu tilning qator asosiy ekstralingvistik vositalari, masalan, nutqning absolyut sur'ati, tanaffuslar xususiyati (ularning davomiyligi va joylashishi) ushbu til hamda imoishora xususiyatlarini egallab olishini ko'zda tutadi. Tadqiqotlar ushbu chet tili me'yoriy grammatikasi vositalari va so'z tuzish hamda stilistika ma'lum vositalari yordamida o'rganish mumkinligini ko'rsatdi [6].

Foydalanuvchini maqsadga muvofiq, unga kerakli kommunikativ bloklarni tanlab olish va jamlashtirishi, tushunib olish uchun sharhlarga murojaat etishga, ya'ni mazmunli, tushunib ish bajarishga majbur qiladi. Bunday izlanish yakuni yozma yoki og'zaki shaklda qayd etiladi. Yozma topshiriqlar til materiallari, shakllari, ma'lum grammatik hodisalardan foydalanishga o'rgatadi. Leksik-grammatik sharh foydalanuvchilarning til materialini mustaqil tizimlashtirish uchun tayanch omil hisoblanadi. Foydalanuvchilarga sharhlashda tushuntiriladigan hodisalar barchasi foydalanuvchilarga tayanish bo'lganligi sababli ular tomonidan nutqda ko'p marotaba takrorlanganidan so'ng tanishish taklif etiladi [10].

Jadal metodika asosiy didaktik birliklari matnlar bilan ishlash metodikasida quyidagilarga amal qilinadi.

1. Dastlabki taqdim etish yoki vaziyatni tushuntirish. Kirish bosqichida kompyuter orqali ovozli tarzda, emotsional ravishda, har bir ibora ona tilidagi tarjima bilan mazmunan bayon etiladi. Shunday qilib, birinchi uchta ibora kiritiladi, ular og'zakikirish kursini tashkil etadi. Keyinchalik bu kurs yakunlanganidan keyin faqat tanish bo'lmagan so'zlar yoki iboralar tarjima qilinadi. Bu iboralarni yodlab olish kerak. Yangi materialni tushuntirishda erkin, tabiiy muloqot qilish uchun zarur shartdir. Vaziyatni tushuntirish 20 daqiqagacha, keyinchalik 5-10 daqiqani tashkil qilishi mumkin. Kirish kursini o'tkazishda birinchi uchta ibora batafsil bayon etiladi va tarjima qilinadi. To'rtinchisidan boshlab, faqat umumiy vaziyat bayon etiladi va tanlab tarjima qilinadi.

2. Ikkinchi taqdim etish yoki matnni tushuntirish. Bu qismi 30-40 daqiqa davom etadi, u quyidagi sxema bo'yicha o'tkaziladi:

Komputer yordamida chet tilidagi iborani tinglash ovoz ketidan takrorlash matn tarjimasining bayoni yana bir bor chet tilidagi matnni takror tinglash va qayta takrorlash. Qiyin iboralarni va alohida nutqiy modellarni 15 martagacha takrorlash mumkin. Eslab qolishga erishish va monotonligini yo'qotish uchun mimika, ishoralar, talaffuz ohanglari (turli emotsional holatlarni ifoda etish, turli audi ritmik gapirish, qayta so'rash, alohida iboralarni ashula qilib aytish va boshqalar) kabi vositalardan foydalanish kerak.

3. Uchinchi taqdim etish yoki faol seans. Foydalanuvchi chet tilidagi iboraning talaffuz qilinishini kompyuterda tinglagandan so'ng, uni chet tilidan tarjima qilib, eslab qolish ko'rsatmasi beriladi. Og'zaki kirish kursidan keyin foydalanuvchi iboraning yozma shaklini o'rganadi, chet tilidagi matnni o'rganib chiqadi va takrorlaydilar.

Shu sxema bo'yicha (chet tilidagi ibora) matnni shunchaki emotsional tarzda o'qib chiqish ham mumkin. Bu bosqichning maqsadi yangi materialni tanib olish yo'li bilan uni ixtiyoriy eslab qolishdan iborat. Bunga 10-15 daqiqa sarflanadi.

4. To'rtinchi taqdim etish yoki musiqiy seans. Bu yangi matnni kiritish so'nggi bosqichi - kompyuterda yengil klassik musiqa ohanglari ostida (Vivaldi, Motsart, Gaydn va boshqalar) amalga oshiriladi. Chet tilida (tarjimasiz) matnni o'qish bosqichi musiqiy seansini boshlashdan avval shunday so'zlar ekranda paydo bo'ladi: "Hozir yoqimli musiqani tinglab, musiqa sadolari ostida chet tilida matnni tinglang. Qulay o'tirib oling, kontsertdagi kabi o'zingizni erkin his qiling. Musiqa tinglashdan ko'proq hordiq chiqarish uchun oyoqlarni uzatib va ko'zlaringizni yumib olishingiz mumkin. Demak, siz kontsertdasiz".

Musiqiy seansga 10 daqiqa ajratiladi. Dam olish va kuchlarini tiklab olish vazifasidan tashqari, bu seans o'z kuchiga ishonch hissini, o'qishdan qoniqish hissining paydo bo'lishiga yordam beradi, chunki matnni tarjimasiz to'rtinchi bor tinglab, chet tilida oson qabul qiladilar va tushunadilar. Matn tugallanadi, kompyuter bilan muloqotni davom ettirishi tavsiya etilmaydi. Mustaqil topshiriqlar (matnni magnitofon yozuvida tinglash) va barcha tushuntirish ishlari musiqiy seans boshlanishidan avval beriladi.

Kirish qismi taqdimotli xususiyati muhimligini aytib o'tish kerak. Har qanday matnning kirish qismi yuqorida tasvirlangan 4 ta taqdimotdan iborat bo'lsa, samarali bo'ladi. Vaqt o'tishi bilan ishning shunday ketma-ketligiga o'rganib qolish va uni chet tilini o'zlashtirishda muvaffaqiyatlari garovi sifatida tushunish mumkin.

5. Masofaviy ta'limda jadal metodni qo'llash. Chet tiliga o'qitish jadal metodi avval katta yoshlilar auditoriyasi uchun ishlab chiqilgan va foydalaniladi. Chet tilini o'rganishda undan foydalanish mumkinligi va maqsadga muvofiqligi muhokama qilinmoqda [8].

Shunday qilib, masofadan o'qitishda jadal metodni qo'llash mumkinligini uch jihatlar bo'yicha ko'rib chiqish mumkin:

— masofadan o'qitishda jadal metodika bo'yicha va o'rta maktabda davlat standarti bo'yicha o'quv soatlarining nisbatlari

— o'quv dasturlarini solishtirish

— oddiy va jadal metodika bo'yicha o'qitish natijalari.

Xronologik o'rta maktabda jadal metod avval sinfdan tashqari, keyin to'garak mashg'ulotlarida qo'llanilib kelgan. Albatta, jadal metodni sinfdan tashqari foydalanishda yuqorida ko'rsatilgan uch jihatlar bo'yicha an'anaviy metodika bilan uni solishtirish va taqqoslash shart emas.

Masofadan o'qitishda "jadallikni" saqlab qolish uchun yetarli soatlarni ajratish mumkin. Chet tillariga kuchaytirilgan o'quv mashg'ulotlari o'qitish jadal metodlari asosiy farq qiluvchi belgilaridan biri hisoblanadi. Bunday holatda jadal ta'lim to'g'risida emas, balki ta'limni tezlashtirish haqida fikr yuritish mumkin. Biroq L.G. Denisova "O'rta maktablarda chet tillariga o'qitish tizimida jadal metodikaning o'rni" maqolasida maktabda jadal metodini qo'llash muammosini yanada chuquroq o'rgangan. U xususan shunday deb yozadi: "Amaliy tavsiyalar hamda metodik maqolalar mualliflari ham maktab doirasida jadal metodikalaridan foydalanishda ko'plab turli xildagi shartlar, tizimlar va tizim ostilarni taklif etadilar [2,8].

Bularning barchasi chet tilini o'qitish turli bosqichlari va turli xildagi sharoitlar mavjudligida jadal metodlarni qo'llash muvaffaqiyatligini bildiradi. Eng qulay usullarini

tizimlashtirish va ajratib ko'rsatish vaqti keldi. Jadal metodikani uch "o'lchamda" ko'rib chiqamiz. 1) jadal metodikalar bo'yicha davlat standarti; 2) ta'lim turli modellariga; 3) ta'lim umumdastur talablariga va maqsadlariga mosligini aniqlash zarur.

O'qimishlilik tayanch darajasi chet tillar bo'yicha davlat standarti bo'lib qolgan. O'qitish kursi xususiyatlaridan qat'iy nazar, unga erishish barcha foydalanuvchilar uchun majburiy hisoblanadi. Chet tillarga o'qimishliliigi tayanch darajasi umumta'lim ommaviy maktablari V-IX sinflarini qamrab oladigan o'qish kursi bilan ko'p darajada mos keladi. Jadal metodika standartga nisbatan ikki ko'rinishda qaralishi mumkin [5].

Yakunlovchi bosqichlarda kirish va umumiy qabul qilingan hajmlardan ancha ko'p bo'lgan nutqiy, leksik va pragmatik yangi materiallarni mustahkamlash kabi jadal metodning muhim vazifasi go'yo ikkinchi darajali bo'lib qolayotganligini aytib o'tish zarur. Nutqiy faoliyat to'rt turlarida ilgari egallagan malakalarini faollashtirish va ularning asosida chet tillarda kommunikativ malakasi yanada yuqori darajasini shakllantirish tayanch hamda to'la o'rta maktabda ham yakunlovchi bosqich asosiy masalasi bo'lib qolmoqda.

Ushbu masalani muvaffaqiyatli hal etish ta'lim jadallashtirilgan texnologiyalarini jalb etishni talab qiladi, jadal metod ulardan biri hisoblanadi. Jadal metodning faollashtiruvchi va jadallashtiruvchi funktsiyasini amalga oshirish uchun faollashtirilishi kerak bo'lgan imkoniyatni tashkil etuvchi yakunlovchi bosqichdan avvalgi yili davomida foydalanuvchilar egallagan asosdan foydalaniladi. Ikkinchi chet tilini o'rganilganda vaziyat bir muncha boshqacha: foydalanuvchilarda birinchi chet tilini egallash tajribalari bor, bu ikkinchi chet tilini yanada qisqa vaqt davomida o'rganishga imkon beradi [9].

Birinchi chet tilidagi tajribasi nutqida leksika va grammatikani faol eslab qolish va foydalanishga ham yordam beradi. Jadal metod esa bu jarayonni tezlashtirishi mumkin. Ikkinchi chet tiliga o'qitish boshlanishida o'quv materiallari katta hajmlarini kiritish va mustahkamlash birinchi darajali ahamiyatga ega bo'lib qoladi. Motivatsiyasini saqlab qolish va qo'llab-quvvatlash muammosini hal etish imkoniyati ikkinchi chet tiliga o'qitishda jadal metodning foydasiga boshqa bir jiddiy asos hisoblanadi.

Mamlakat ijtimoiy hayotida demokratik qayta qurish sababli ta'lim sohasida ham o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Ulardan biri barcha fanlar bo'yicha dasturiy ta'minotlarni to'la almashtirilishi hisoblanadi.

"Chet tili" fani sohasida chet tillariga o'qitish yuqorida esga olingan modellari uchun qator dasturlar yaratilgan. Ularda chet tillari bo'yicha dasturlarni loyihalashtirishda ilg'or tajribalar hisobga olingan, xalqaro hamjamiyat tomonidan to'plangan tajriba, milliy mualliflar tadqiqotlaridan foydalanilgan. Chet tili bo'yicha zamonaviy dasturlarda yakuniy mahsulotga va o'quv jarayoniga yo'naltirilgan materiallar mavjud. Mahsulotga mo'ljallangan dasturlar ta'limning yakuniy maqsadini aks ettiradi. O'quv jarayoniga yo'naltirilgan dasturlarda ta'lim vositalariga, dastur maqsadlarini amalga oshirish uchun ko'p jihatdan mos keladigan aniq metodik uslublar tasvirlanishiga e'tibor qaratiladi. Dasturning bu turi unchalik odatiy emas va dasturiy ta'minot milliy nazariyasi sohasida innovatsiya hisoblanadi.

O'quv jarayoniga yo'naltirilgan dasturlarda qo'llanilishi natijasida chet tillarga o'qitish masalasini munosib ravishda hal etishga imkon beruvchi asosiy metodik yondoshishlar aks ettiriladi. Chet tiliga o'qitishda kommunikativ, shaxsiy-

faoliyatli, kognitiv, ijtimoiy-madaniy jadal yondashishlar hozirgi kunda milliy metodikada eng mashhur va keng tarqalgan hisoblanadi. Mana shu barcha yondashishlar sof ko'rinishda emas, balki turli kombinatsiyalarda foydalaniladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, chet tillarini o'rganish hozirgi davrimizning dolzarb vazifalaridan ekan, o'sib kelayotgan yosh avlodga til o'rgatishning jadal metodlarini ishlab chiqib, ularga tavsiya etish olimlar va o'qituvchilarning kechiktirib bo'lmas ishlaridan hisoblanadi. Chet tillariga o'qitishda suggestopedik yondashish bu kombinatsiyalarda e'tibordan chetda qolib ketmasligi, biz uchun muhimligini aytib o'tish zarur, chunki u alohida texnologiya hisobiga boshqa texnologiyalarga qaraganda, qator o'quv masalalarini ancha muvaffaqiyatli hal etishga qodir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. G. Lozanov. "Suggestopediya today" 2009.
2. L.G. Denisova. Mezenin S.M. Angliyskiy yozik: Intensivniy kurs.
3. M. Xoldarova, L. Maxmudova. "Axborot texnologiyalari yordamida chet tiliga jadal o'rgatish". 2008.

4. Lozanov, Georgi. Suggestology and Suggestopedy. 2006
5. Harmer, Jeremy. The Practice of English Language Teaching. 3rd Edition. Person Education Limited, 2001.
6. Richards, J.C. and Rodgers, T.S. (2001). Approaches and Methods in Language Teaching (2nd ed.). Cambridge: Cambridge University Press.
7. Лозанов, Георги Кирилов. Педагогический энциклопедический словарь Гл. ред. Б. М. Бим-Бад. - М.: Большая Российская энциклопедия, 2002. [Lozanov, Georgi Kirilov. Pedagogicheskiy ensiklopedicheskiy slovar Gl. red. B. M. Bim-Bad. - M.: Bolshaya Rossiyskaya ensiklopediya, 2002.(In Russ)]
8. Лозанов Георги Кирилов. Российская педагогическая энциклопедия. - М.: Научн. изд. "Большая Российская энциклопедия", 1993. [Lozanov Georgi Kirilov. Rossiyskaya pedagogicheskaya ensiklopediya. - M.: Nauchn. izd. "Bolshaya Rossiyskaya ensiklopediya", 1993. 2002.(In Russ)]
9. Suggestopaedia - Desuggestive Teaching Communicative Method on the Level of the Hidden Reserves of the Human Mind. - Vienna: International Centre for Desuggestology, 2005.
10. Jump up to:Felix, Uschi (1989). An Investigation of the Effects of Music, Relaxation and Suggestion in Second Language Acquisition in Schools (PhD thesis). Flinders University 2012.

Поступила 09.06. 2019